



VATANPARVARLIK — BU

Nasibjonov Nurillo Nasibjon o'g'li

FarDu HTF

Anotatsiya: Bu so'z kimlar uchundir biroz balandparvozday tuyular, lekin bizning bugungi barcha ishlarimiz samarasini aynan mana shu kalom belgilab berishiga shubha yo'q.

Kalit so'zi: O'zbekiston Respublikasi, Prezident, Qurolli kuchlar, Oliy bosh qomondon,

Bugun biz uchun chinakamiga Yangi hayot boshlandi. Uyg'oq nazar bilan qaralsa, yurtimizning ko'rк-u tarovati kun sayin sayqal topib bormoqda. Shaharlarimizdagi siti-shaharchalar, ravon yo'llar – ko'priklar, metroning yangi yo'nalish yo'laklari, ko'p qavatli uy-joylar...

Islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak ham hech bir soha nazardan chetda qolib ketayotgani yo'q. Tibbiyat deysizmi, matbuot deysizmi, madaniyat, ta'lim-tarbiya va davlat tiliga alohida e'tiborda bo'lish, mamlakatimizning barcha jabhadagi dunyoviy ko'rsatkichlarini yuksaltirish barobarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari salohiyatini ham yangi bosqichga olib chiqish...

Darvoqe, Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz hayotidagi muhim voqyea – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni arafasida Qurolli Kuchlar Akademiyasiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni raisligida Qurolli Kuchlar va harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatining 2020-yil yakunlari hamda kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini yanada oshirish borasida bajarilgan ishlar, Qurolli Kuchlarni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar va ularning natijalari batafsil sarhisob qilindi. Yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Qurolli Kuchlarni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, shuningdek, bu borada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or innovatsiyalarni keng tatbiq etish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berildi.

Tadbirda davlatimiz rahbari e'tirof etgan "**o'z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo'lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi**" degan birgina so'z barchamizni yanada ogoh bo'lishga undaydi, farzand tarbiyasi yo'lida alohida e'tibor qaratilishi lozim jihatlarni yodimizga soladi. Jondan aziz farzandlarimiz qalbida milliy ruh, ona-Vatanga mehr va sadoqat,adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, qolaversa, buyuk ajdodlarimizga munosib avlod bo'lishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Bu yo'lda mamlakatimiz bo'ylab Prezidentimiz



19-SON



boshchiligidagi juda katta safarbarlik e'lon qilinmoqda. “Yangi O'zbekiston — maktab ostonasidan boshlanadi” degan shiorning o'zi barcha maqsad va muddaolarimizni bayon qilib turibdi.

The newspaper cover includes the title 'ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН' (Yangi O'zbekiston), the date '№ 14 (270), 2021 йил 21 январь, пайшанба' (May 21, 2021, Saturday), and a QR code. The main headline is 'МАҲНАВИЯТ — ЯНГИ УЙГОНИШ САРИ ЙЎЛ' (Makhnaviyat — Yangi Uygonish Sari Yul). It features a photo of Shavkat Mirzayev and an interview with Akmaljon Meliboev.

1. Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqla yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi sharoitida aynan vatanparvarlik tushunchasining roli va ahamiyati ortishi tabiiy. Misol tariqasida mitti go'dak xatti-harakatini kuzatsangiz ham uning tiynatida “bu — meniki, menga tegishli” degan iddai yaqqol ko'rinish turadi. Qolaversa, xarxashalarining mohiyatida ham egalik hissini o'zida saqlab qolish maqsadi hukmron bo'ladi. Demak, bizdan talab bitta, u ham bo'lsa, farzandlarimizdagagi Egalik hissini yuksaltirish, bu yo'ldagi ishlarimizga vatanparvarlik ruhini dadil singdirishdan iboratdir.

Men o'zini o'zbek deya tanitib, kiborlarcha boshqa tillarda so'zamollik qiluvchilarni xush ko'rmayman va ishonch bilan ayta olamanki, ularning ko'nglida Vatanparvarlik kayfiyatidan asar ham bo'lmaydi. Zero, Yurtni sevish — “bu Vatan — mening or-nomusim!” degan so'zni qalbdan chiqarib ayta olish degani. Oriyati bor yurak esa boshqa tilda gapirib, o'zini ko'z-ko'z qilmaydi, maqtanmaydi. Qaytanga o'z tili dovrug'ini yanada yuksaltirish, qiymatini oshirish yo'lidan boradi.

Ushbu tadbir davomida ham O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni tomonidan ilgari surilgan g'oyalari, fikr va mulohazalarning mazmun-mohiyati har galgidek yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga tutashib ketdi. Zero “Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” avvalida turib qilinayotgan rejalar har birimizning zimmamizga mas'uliyat yuklaydi. Shubha yo'qli, navqiron yoshlari mana shu Vatan, shu muqaddas tuproqning ertangi Egalar! Demak, ertamiz egalarini o'z qalbidagi murg'ak **Egalik hissi** bilan birgalikda kamol toptirmog'imiz kerak! Ularga albatta ushbu so'zlarni uqtiraylik:



ADABIYOTLAR:

Йигиталиева, З. М. (2020). МАТНДА МОДУСНИНГ ИФОДАЛАНИШ УСУЛЛАРИ. Международный журнал искусство слова, 3(2).

Yigitaliyeva, Z. (2020). EXPRESSION OF THE MODUS BY PARALINGUISTIC MEANS. Theoretical & Applied Science, (2), 25-29.

Rasulovna, K. M. (2023). TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF ACADEMIC PERFORMANCE OF STUDENTS IN MEDICAL UNIVERSITIES. INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022, 2(15), 64-67.

Abduvaliyeva, F. T., Azizova, F. L., Akromov, D. A., & Sherkuziyeva, G. F. (2022). APPROVAL AND ECOLOGICAL-HYGIENIC ASPECTS OF WATER SUPPLY TO POPULATION POINTS.

Кадирова, М. (2021). Педагогиканинг асосий категориялари, уларнинг тиббий таълим тизимидағи семантик мазмуни. Общество и инновации, 2(10/S), 52-57.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK TARBIYASIDA MUZEYLARNING MUXIM AHAMIYATI. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(4), 166-168.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA URUSH VA MEHNAT FAXRIYLARI BILAN TEMATIK KECHA VA UCHRASHUVLAR O'TKAZISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(5), 123-125.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA URUSH VA MEHNAT FAXRIYLARI BILAN TEMATIK KECHALAR VA UCHRASHUVLAR O'TKAZISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI. PEDAGOG, 1(4), 1340-1342.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). O'SIB KELAYOTGAN YOSH AVLODGA HARBIY TEKNIKA TO'GARAKLARINI TASHKILLASHTIRISH VA UALAR BILAN A'MALIYOTDA TADBIQ ETISH. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 1(10), 141-143.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). O 'QUVCHILAR HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASINING ASOSIY VAZIFALARI VA YO'NALISHLARI, HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDAGI SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(10), 186-189.

Xaydarali o'g'li, X. N., Komiljon o'g'li, Y. Q., Sardorbek No'monjon o'g, S., & Saydaliyevich, U. S. (2022). VATANPARVARLIK MAVZUSIDA NAZARIY KONFERENSIYALAR TAYYORLASH VA O 'TKAZISH. INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS, 1(12), 107-111.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLAR ONGIDA MILLIY G'OYA VA MAFKURA TUSHUNCHALARI SHAKLLANTIRISH. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 1(4), 11-15.



Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'QUVCHI YOSHLARINI-O'ZBEKISTON XALQI VA QUROLLI KUCHLARINING JANGOVAR VA MEHNAT AN'ANALARI ASOSIDAGI HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASI". INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 1(12), 393-395.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK MAVZUSIDAGI MA'RUZA, REFERATLAR TAYYORLASH VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(25), 395-398.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUXIDA TARBIYALASHDA JANGOVAR BAYROQQA VA HARBIY QASAMYODGA SODIQLIK HISSINI UYG'OTISH. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(18), 355-357.

Sardorbek No'monjon o'g, S. (2022). VATANPARVARLIK MAVZUSIDA NAZARIY KONFERENSIYaLARNI MAQSAD VA VAZIFALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(14), 1120-1121.

G'aniyevna, S. A. (2023). ISSUES OF INTERCULTURAL COMMUNICATION AND RECEPTION. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(28), 191-195.